

INGLIZ TILINI O‘QITISH JARAYONIDA QO‘SHIQ VA VIDEO MATERIALLARDAN FOYDALANISH USULLARI VA SAMARADORLIGI

Habibullayeva So‘g‘diyona Sherzod qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti 3-bosqich talabasi

E-mail:

Anotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz tilini o‘rganuvchilar uchun foydali metodlar, vizual axborotning inson miyasiga ta’siri va ko‘z orqali qabul qilingan bilimlarning xotira tizida tutgan o‘rni haqida ilmiy izlanishlar natijasi, zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi va faolligini oshirish prinsiplari va qo‘shiq va video materiallar o‘quvchining til darajasidagi foydalari haqida so‘z boradi.*

Abstract: *This article discusses effective methods for English language learners, the impact of visual information on the human brain, and the role of knowledge acquired through visual perception in the memory system based on the findings of scientific research. It also examines the principles of increasing students’ interest and active participation in the modern educational process, as well as the benefits of using songs and video materials according to learners’ language proficiency levels.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются эффективные методы для изучающих английский язык, влияние визуальной информации на человеческий мозг и роль знаний, полученных посредством зрительного восприятия, в системе памяти на основе результатов научных исследований. Также рассматриваются принципы повышения интереса и активности учащихся в современном образовательном процессе, а также преимущества использования песен и видеоматериалов с учётом уровня владения языком учащихся.*

Kalit so‘zlar: *ingliz tilini o‘qitish, qo‘shiq, video darsliklar, tinglab tushunish, lug‘at boyligi, talaffuz, TED Talks, motivatsiya, kommunikativ ko‘nikmalar.*

KIRISH

Barchamizga ma’lumki, butun dunyo globallashuv jarayonini boshdan o‘tkazar ekan, so‘nggi yillarda chet tillarini o‘rganish va jahon mehnat bozorida to‘laqonli raqobatlasha oladigan professional kadrlarni tayyorlash o‘qituvchilar oldida turgan asosiy vazifaga aylanib ulgurgan. Bunda esa murabbiylardan barcha qiziqarli va interaktiv yo‘llarni qo‘llash orqali dars muhitini “Teacher-centered” shaklidan o‘quvchilarni fikr va mulohazalari birinchi o‘ringa qo‘yiladigan shaklga o‘tkazish talab etilmoqda. Tabiiyki, o‘rta va boshlang‘ich darajadagi o‘rganuvchilarda murakkab grammatika, ingliz tili morfologiyasi va nisbatan

o'zgacha talaffuzi tufayli darsdan zerikib qolish, motivatsiya va shijoatning susayishi kabi holatlar kuzatiladi. Bunday holatlarda samarali yordamchi bu-vizual axborot turi. Bunday turdagi axborotga film, serial, podcast va klipli qo'shiqlar misol bo'ladi va bu o'quvchilarni nafaqat darsga qiziqishini avtomatik oshiradi, balki ularning talaffuzi va lug'at boyligini ham sezilarli ravishda o'stirishda ham tayanch vazifasini o'taydi. Ushbu tadqiqot tizimlastirilgan vizual tasvir inson miya faoliyatida ma'lumotni o'rganishni osonlashtirishi va qanday qilib ritm va ohangni yangi til o'rgatishda to'g'ri ishlata olish metodlarini aniqlashga qaratilgan.

Asosiy qism

.Chet tili darslarini o'rganishdagi eng qiyin jihatlardan biri bu lug'at boyligining kamligi bilan bo'lgan jarayondir. Ko'pchilik hali-hanuz o'sha eskicha usul hisoblanmish daftar tutib, uning ikki tarafiga so'zlarni va uning tarjimasini yozib olish bilangina kifoyalanadi. Bu metod ham o'ziga yarasha ma'lum bir foyda keltiradi, ammo ko'pchilik lug'atlarni doimiy takrorlab, faol holatga o'tkazmagani uchun tezda unutib yuboradi. Bu sohada bir nechta interaktiv usullar yordamga keladi.

Bundan tashqari, ingliz tilini o'qitishda "TED Talks" kabi autentik materiallardan oqilona foydalanish ham talaffuzdagi qiyinchiliklardan qisqa vaqt ichida xalos bo'lish va o'z sohasisining ustalar tomonidan berilgan ma'lumotlarni hayotga tatbiq qilishga asosiy yordamchi sifatida asosiy rol o'ynaydi. Bu turdagi mutaxassislarning gaplari dona-dona qilib, barchaga tushunarli tarzda bayon etgani sababli bu metod ayniqsa IELTS imtihoniga tayyorlanuvchilarga o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

Amaliy qo'llash usullari:

"Feel the rhythm and learn" usuli. Bu metodda o'quvchilarga maxsus bir qo'shiq dars davomida tahlil qilib beriladi va undagi o'ntagacha miqdordagi so'zni yod olish topshig'i yuklatiladi. Bu jarayon har o'n kunda bir amalga oshiriladi. Bu muddat oralig'ida har kuni dars davomida shu musiqa bir marta takror eshitish vazifasi beriladi. Nemis psixologi Hermann Ebbinghausning ilmiy izlanishlari shuni ko'rsatadiki, inson tushunarli va ma'noli matnlarni, yoki she'rlarni yodlab qolishi uchun undan o'rtacha sakkiz kundan o'n kun vaqt talab etiladi. Yod olish jarayoni faqatgina operativ vaqtinchalik xotirada emas, uzoq muddatli ichki xotiraga transformatsiya jarayonida o'quvchilarni zeriktirmaslik eng muhim va mashaqqatli jarayon bo'lib, qo'shiq va musiqa ohangi ularga bunday kichik muammolarni kamaytirishda birmuncha yordamchi bo'ladi. Bu yerda tez-tez o'quvchilardan fikr so'rash va kichik imtihonlar so'ngida nomoddiy rag'batlantirish usuli sifatida ham qo'llash mumkin.

"Sing and dance" uslubi. Bu metod ayniqsa kichik yoshdagi bolalar uchun moslashtirilgan bo'lib, ularda yangi tilga bo'lgan ilk qiziqishni uyg'otishning eng zo'r usullaridan deb hisoblanadi va ko'pchilik ingliz va rus tili o'qituvchilari orasida keng tarqalgan. Uning asosiy shartlari:

1. O‘quvchining darajasiga mos videoklip topish;
2. Vizual doska, ekran yoki shu kabi digital texnologiyalar orqali namoyish etish
3. O‘rta darajadagi qiyinchilikdagi harakatlar bilan qo‘shiqqa mos xoreografiyani o‘rganish va bolalarga o‘rgatish.

Music collocations. Ingliz tilini o‘rganishni collocation, ya’ni so‘z qo‘shilmalarisiz tasavvur qilish qiyin. Sababi faqatgina so‘zlarni o‘zinigina yodlashni o‘zi bilan “speaking” darajasini yuqori ko‘tarish biroz mushkul vazifa. Shu sababli o‘quvchilarga nafaqat grammatik to‘g‘ri hisoblangan akademik darajadagi ingliz tilini, balki kundalik so‘zlashuvda kerak bo‘ladigan fraziologik birikmalar, iboralarni haqida ham tushuncha berish har bir ingliz tili pedagogining birlamchi vazifalari qatoridan joy olgan. Ayniqsa, hozirda mashxur trendga aylangan qo‘shiqlardan qisqacha parcha olinib, o‘zbek tilida batafsil sharhlab berilsa, o‘quvchilar ham ma’lum bir vaziyatlarda lug‘atlarni “active”-faol holatda ishlatishga qiynalishmaydi.

TED Talklar ingliz tili o‘qituvchilari uchun zamonaviy va samarali ta’lim vositalaridan biridir. Ular orqali o‘quvchilar nafaqat ingliz tilini, balki turli mavzular, g‘oyalar va real hayotdagi muammolar haqida ham ma’lumot olishlari mumkin. TED Talklar darsni qiziqarli, interaktiv va mazmunli qilishga yordam beradi.

TED Talklarning asosiy foydalaridan biri — tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish. O‘quvchilar turli davlatlardan bo‘lgan insonlarning nutqini, turli aksentlarni va tabiiy nutq tezligini eshitadilar. Bu ularga faqat darslikdagi ingliz tilini emas, balki real hayotda ishlatiladigan ingliz tilini tushunishga yordam beradi.

Bundan tashqari, TED Talklar lug‘at boyligini oshiradi. O‘quvchilar yangi so‘zlar, iboralar va kundalik nutqda ishlatiladigan birikmalarni kontekst orqali o‘rganadilar. O‘qituvchi video boshlanishidan oldin muhim yangi so‘zlarni tushuntirib berishi mumkin.

TED Talklar gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun ham juda foydali. Videoni tomosha qilgandan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha savollar berishi, juftlik yoki guruhlarda muhokama tashkil qilishi mumkin. Masalan, “Siz ma’ruzachining fikriga qo‘shilasizmi?” yoki “Bu g‘oyani hayotimizda qanday qo‘llash mumkin?” kabi savollar o‘quvchilarni ingliz tilida erkin fikr bildirishga undaydi.

Yana bir muhim jihati — tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. TED Talklarda ta’lim, texnologiya, psixologiya, madaniyat, ekologiya va boshqa ko‘plab mavzular yoritiladi. O‘qituvchi o‘quvchilardan ma’ruzachining asosiy fikrini aniqlash, uning dalillarini tahlil qilish va o‘z fikrlarini bildirishni so‘rashi mumkin.

TED Talkni darsning uch bosqichida qo‘llash mumkin.

1. Videoni ko‘rishdan oldin:

O‘qituvchi mavzuni tanishtiradi, yangi so‘zlarni tushuntiradi va o‘quvchilardan video mazmunini taxmin qilishni so‘raydi.

2. Videoni tomosha qilish vaqtida:

O‘quvchilar asosiy fikrlarni yozib borishlari, savollarga javob berishlari yoki muhim ma’lumotlarni aniqlashlari mumkin. O‘qituvchi videoni kerakli joylarda to‘xtatib, o‘quvchilarga savollar berishi ham mumkin.

3. Videoni ko‘rgandan keyin:

O‘quvchilar video mazmunini qisqacha bayon qilishlari, mavzu bo‘yicha bahs-munozara qilishlari, o‘z fikrlarini bildirishlari yoki kichik taqdimot tayyorlashlari mumkin. Shuningdek, TED Talk asosida insho yoki opinion paragraph yozish topshirig‘ini berish mumkin.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilini o‘qitish jarayonida qo‘shiq va video materiallardan foydalanish o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. “Feel the rhythm and learn”, “Sing and dance” va “Music collocations” kabi metodlar nafaqat o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga, balki ularning talaffuzi, tinglab tushunish ko‘nikmalari va darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Vizual va audial materiallarning qo‘shma qo‘llanilishi o‘quvchilarda uzoq muddatli xotirada til birliklarini mustahkamlashga yordam beradi, bu esa an‘anaviy o‘qitish usullariga nisbatan ancha samarali natija beradi. TED Talklar ingliz tili darslarini yanada qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi. Ular o‘quvchilarning tinglash, gapirish, lug‘at boyligi, tanqidiy fikrlash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Eng muhimi, o‘quvchilar ingliz tilini real hayotdagi tabiiy nutq orqali o‘rganadilar. Shuning uchun TED Talklardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish zamonaviy ingliz tili darslarining samaradorligini oshirishi mumkin.

Shu bilan birga, bunday metodlarni qo‘llashda o‘quvchining yosh xususiyatlari va til darajasini hisobga olish, materiallarni to‘g‘ri tanlash muhim shart hisoblanadi. Kelgusida bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni davom ettirish, turli yosh guruhlari va til darajalarida qo‘shiq hamda video materiallarning samaradorligini aniqroq o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kumar, T., Kumar, A., Kaur, R., & Choudhary, F. (2022). Use of Music and Songs as Pedagogical Tools in Teaching English as Foreign Language Contexts. *Education Research International*, 2022, Article ID 3384067. <https://doi.org/10.1155/2022/3384067>

2. Avdiu, T. A. (2021). Non-native English teachers' views on the use of music and songs in teaching English as a foreign language to primary school learners. *Rast Musicology Journal*, 9(3), 3105–3120. <https://doi.org/10.12975/rastmd.20219310>
3. Wong Jun Hui, C., & Jamaludin, K. (2024). The Use of Songs in English Language Teaching: A Systematic Literature Review to Identify Advantages and Appropriateness of Age Categories. *International Journal of Academic Research in Progressive Education and Development*, 13(1). <https://doi.org/10.6007/IJARPED/v13-i1/20729>
4. Rusadze, I. (2018). Songs Enhance Students Involvement. *5th International Research Conference on Education, Language and Literature (IRCELT)*, Kutaisi, Georgia. https://www.researchgate.net/publication/326262723_Songs_Enhance_Students_Involvement
5. Kuśnierek, A. (2016). The role of music and songs in teaching English vocabulary to students. *World Scientific News*, 43(1), 43–48. <http://www.worldscientificnews.com/wp-content/uploads/2015/10/WSN-431-2016-1-55.pdf>
6. Dolean, D. D. (2016). The effects of teaching songs during foreign language classes on students' foreign language anxiety. *Language Teaching Research*, 20(5), 638–653. <https://doi.org/10.1177/1362168815606151>
7. Fitria, T. N. (2022). Using TED Talks in English Language Teaching (ELT): Supplemental Resources for English Language Teaching (ELT). *SOSMANIORA: Jurnal Ilmu Sosial dan Humaniora*, 1(1), 36–43. <https://doi.org/10.55123/sosmaniora.v1i1.199>
8. Tilwani, S. A., Vadivel, B., Uribe-Hernández, Y. C., Wekke, I. S., & Haidari, M. M. F. (2022). The Impact of Using TED Talks as a Learning Instrument on Enhancing Indonesian EFL Learners' Listening Skill. *Education Research International*, 2022, Article ID 8036363.